

Xalq deputatlari So'x tumani Kengashi qarori Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida

e-qaror.gov.uz

VI-83-13-11-159-K/24



XALQ DEPUTATLARI SO'X TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 19 - fevral

VI-83-13-11-159-K/24

So'x tumani hokimligi

Tashabbusli budjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida

Aholini tashabbusli budjet jarayoniga keng jalb qilishni yanada kuchaytirish, budjet mablag'larining bir qismini jamoatchilik fikri asosida yebnaltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish, shuningdek, o'tgan davr mobaynida orttirilgan tajribani inobatga olgan holda mazkur tizimni yanada takomillashtirish maqsadida xalq deputatlari So'x tumani Kengashi

QAROR QILADI:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024 yil 30 yanvar kungi "Tashabbusli budjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi KQ-666-IV-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
- Tumanda jamoatchilik fikri asosida shakllangan loyihalarni baholash, saralab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha Ishchi komissiya tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
- Xalq deputatlari So'x tumani Kengashining 2022-yil 19-fevraldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-49-19-11-159-K/22-sonli Qarori bilan tasdiqlangan So'x tuman budjeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi nizom o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Kengash raisi



S.Sayidmusaev

Xalq deputatlari So'x tuman
Kengashining
2024-yil 19-fevraldagi
VI-83-13-11-159-K/24-son
qaroriga
1-ilova

Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish,
baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish
bo'yicha ishchi komissiyaning
TARKIBI

T/r	F.I.O.	Ish joyi va lavozimi *
1.	S.Sayidmusaev	Xalq deputatlari So'x tuman Kengashi raisi, ishchi komissiya rahbari
2.	N.Sadirbekov	Xalq deputatlari So'x tuman Kengashining vakili
3.	R.Qoziev	Xalq deputatlari So'x tuman Kengashining vakili
4.	S.Mirzaev	Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari
5.	G'.Melnikov	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i
6.	Q.Haydarov	Mahalla uyushmasi So'x tuman bo'limi boshlig'i
7.	Z.Iskandarov	Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i
8.	I.Shamsudinov	Iqtisodiyot va moliya bo'limining Mahallalar va ochiq byudjet masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi (Ishchi organ)
9.	B.Enazarov	So'x tuman adliya bo'limi boshlig'i
10.	T.Mamasiddiqov	Farg'ona viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
11.	B.Jalolov	Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
12.	G.Usmonova	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
13.	U.Mamadaliyev	Tibbiyot birlashmasi boshlig'i
14.	F.Azimbekov	"So'x tumani suv ta'minoti" MChJ tuman filiali boshlig'i
15.	Sh.Hisenov	"So'x tumangaz" bo'limi boshlig'i
16.	Sh.Rahimov	So'x Elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i

17.	U.Boltaboev	So'x tuman Irrigatsiya bo'limi boshlig'i
-----	-------------	--